



Burxonova Yulduzxon Botirali qizi

Fa'rg'ona davlat universiteti magistr talabasi yulduzxonburxonova220501@gmail.com

Jurayev Islom Mamasodikovich

*Farg'ona davlat universiteti Chet tillari fakulteti Ingliz filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)*

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi til birliklarining ichki mazmuniy tuzilishini ochib berishda sema tushunchasi va semantik tahlil metodlarining o'rni leksik va frazeologik sathda tadqiq etilgan. Tadqiqotda semaning turlari - denotativ, konnotativ va differensial semalar tizimi hamda ularning o'zaro munosabati komponent tahlil metodi asosida yoritilgan. Shuningdek, frazeologizmlarning semantik komponentlarini aniqlash ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi tarjima ekvivalentligi ile adekvatligini baholashning asosiy mezonini ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: sema, semantik tahlil, frazeologik birliklar, denotativ sema, konnotativ sema, differensial sema, komponent tahlil, ko'chma ma'no.

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarining ma'nosini chuqur va tizimli o'rganish masalasi muhim ilmiy va lingvistik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, leksik birliklar va frazeologik birliklarning ichki semantik tuzilishini tahlil qilish jarayonida sema tushunchasi va semantik tahlil metodlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, til birliklari ma'nosi yaxlit va bo'linmas hodisa emas, balki murakkab va ko'p qatlamli semantik tuzilma bo'lib, u bir qator kichik ma'no komponentlaridan tashkil topadi.

Ushbu ma'no komponentlari tilshunoslikda sema deb yuritiladi. Sema - bu til birligi ma'nosining eng kichik, bo'linmas va mustaqil semantik elementi va tahlil qilinadigan komponenti bo'lib, u til birliklarining ma'no tizimini o'rganishda muhim rol o'ynaydi.

Boshqacha qilib aytganda, sema - bu ma'noning "atomi" deb tasavvur qilsak, har bir so'z yoki ibora bir butun ma'no beradi. Lekin shu ma'noning ichida uni tashkil qiluvchi yanada kichikroq bo'lakchalar bor.

Ana shu eng kichik ma'no bo'lakchasi "sema" deyiladi. Lingvistikada bu tushunchani "ona" misoli bilan yanada chuqurroq va aniqroq tushuntirsak, "ona" so'zining ma'nosi quyidagi semalardan (bo'lakchalardan) tashkil topgan: 1. Inson semasi (hayvon emas); 2. Ayol semasi (erkak emas); 3. Avlod qoldirgan semasi (farzandi bor, ya'ni farzandni dunyoga keltirgan inson)

So'z yoki frazeologik birlik ma'nosi bir nechta semalarning yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Semantik tadqiqotlarda sema tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan bo'lsa-da, uning asosiy mohiyati birlikning ma'nosini tashkil etuvchi ma'no elementlari ekanligi o'zgarishsiz qolgan. Masalan, rus tilshunosi N.N.Amosova o'z tadqiqotlarida semani "ma'noning tashkiliy elementi" sifatida ko'rib,



uning ikki turini farqlaydi: denotativ sema (ashyoviy yoki real voqelikka mos ma'no) va konnotativ sema (qo'shimcha, baholovchi, emotsional yoki obrazli ma'no)²⁸.

Amosova nuqtai nazaridan, frazeologik birliklarning to'laonli ma'nosini ochishda aynan shu semalarning birikmasi va o'zaro munosabati hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Amerikalik tilshunos Charlez Kay Ogdendan boshlangan va keyinchalik boshqa tadqiqotchilar tomonidan rivojlantirilgan semantik komponent tahlili (semantic feature analysis) usuli ham semaning ma'no tarkibidagi rolini o'rganishga qaratilgan. Bu usulga ko'ra, har bir so'z yoki birlik ma'lum bir semantik xususiyatlar to'plamidan iborat bo'ladi. Bu xususiyatlar o'sha birlikning boshqa birliklardan farqini belgilaydi²⁹. Masalan, "o'g'il bola" semasiga ega bo'lgan "o'g'il" so'zi "inson", "erkak", "yosh" kabi semalarni o'z ichiga oladi.

O'zbek tilshunosligida ham sema tushunchasi o'ziga xos talqinlarga ega. Jumladan, Sh.Rahmatullayev frazeologik birliklarning semantik turg'unligini o'rganish jarayonida ularning ma'no tarkibini tashkil etuvchi semalarga alohida e'tibor qaratgan. U frazeologizmlar ma'nosini tahlil qilishda aynan shu semalar yordamida ularning ko'chma, obrazli va ekspressiv xususiyatlarini ochib berish mumkinligini ta'kidlagan³⁰.

Baqo Yo'ldoshev esa frazeologizmlarning uslubiy xususiyatlarini o'rganishda semalarning, xususan, baholovchi va emotsional semalarning ahamiyatini ko'rsatib o'tgan³¹. Uning tadqiqotlarida baholovchi sema va emotsional sema kabi tushunchalar frazeologizmlarning nutqdagi ta'sirchanligini ta'minlovchi asosiy omillar sifatida ko'riladi.

Sema tushunchasi struktur-semantik tilshunoslik doirasida shakllangan bo'lib, u til birliklarining ma'nosini eng kichik ajralmas semantik birliklar asosida tahlil qilish imkonini beradi. Sema termini dastlab Yevropa strukturalizmi vakillari tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan va keyinchalik rus, ingliz hamda boshqa milliy tilshunoslik maktablarida keng rivojlantirilgan.

Zamonaviy tilshunoslikda sema tushunchasi yanada kengayib, xususan, L.Hjelmslev, E.Benveniste, A.J.Greimas, shuningdek, rus tilshunosligida V.G.Gak, A.V.Kunin, N.N.Amosova kabi olimlarning ishlarida sema tushunchasi muhim nazariy kategoriya sifatida, denotativ sema (ashyoviy mazmun), konnotativ sema (qo'shimcha ma'no, jumladan, ekspressiv, baholovchi, obrazli, emotsional semalar) va hatto pragmatik sema (nutqiy vaziyatga bog'liq ma'no) kabi turlarga ajratiladi³².

Frazeologik birliklarning tarjimai jarayonida mazkur semalarning bir butun holda yoki qisman saqlanishi yoki yo'qolishi tarjimaning sifatini belgilovchi asosiy mezonlardan hisoblanadi. Masalan, ingliz tilidagi "to spill the beans" iborasi o'zbek tiliga "sirni ochib qo'ymoq" deb tarjima qilinganda, denotativ sema ("sirni oshkor qilish") va obrazli sema ("donni to'kib yuborish" va undan kelib chiqadigan "sir ochilishi" obrazli tasviri) qisman saqlanib qoladi³³. Aksincha, "red tape" iborasining "qizil lenta" deb tarjima qilinishi deyarli obrazni yo'qotib, faqat deskriptiv (tavsifiy) ma'no bilan cheklanishiga olib keladi.

²⁸ Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Москва: Изд-ЛГУ, 1963. – С. 158.

²⁹ Lyons, J. Semantics, Vol. 1. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – P. 309.

³⁰ Rahmatullayev, Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent: O'zSSR "O'zbekiston" nashriyoti, 1978. – B. 7.

³¹ Yo'ldoshev, B. O'zbek frazeologiyasining rivojlanish muammolari. Toshkent: O'zODTU nashriyoti, 1998. – B. 45.

³² Cruse, D.A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – P. 87.

³³ Кунин А.В. Курс английской фразеологии. – Москва: Высшая школа, 1984. – С. 178.



Tilshunoslikda semalar turli mezonlar asosida tasnif qilinadi. Eng keng tarqalgan tasnifga ko'ra, semalar denotativ, konnotativ va differensial semalarga ajratiladi.

Denotativ va konnotativ semalar yuqorida aytib o'tganimizdek, til birligining asosiy ya'ni lug'aviy ma'nosi va qo'shimcha ma'nolarni ifodalaydi.

Denotativ sema, u dunyodagi muayyan narsa, hodisa, belgi yoki harakatni bevosita bildirib, lug'atlarda berilgan birinchi izoh hisoblanadi. Denotativ ma'no deyarli har doim o'sha til uchun barqaror va universal bo'ladi.

U shaxsiy munosabat, his-tuyg'u yoki baholashni o'z ichiga olmaydi. Masalan, "kitob" so'zi, denotativ ma'nosi - sahifalardan iborat, ma'lumot yoki badiiy matnni o'z ichiga olgan, yozilgan yoki bosma shakldagi buyum. Konnotativ ma'no - bu so'zning denotativ ma'nosiga qo'shimcha bo'lib keladigan qo'shimcha hissiy, baholovchi, uslubiy, obrazli yoki ijtimoiy jihatlarni o'z ichiga oladi.

Konnotativ ma'no ko'pincha subyektiv, ya'ni nutq egasining munosabatini, tinglovchining his-tuyg'ularini yoki ma'lum bir madaniy kontekstni bildiradi. Konnotativ ma'no tilshunoslikda "ekstra-ma'no" yoki "qo'shimcha ma'no" deb ham yuritiladi. Konnotativ ma'nolarning ba'zi turlari mavjud:

- Baholovchi(Evaluative): Ijobiy yoki salbiy munosabatni bildiradi (masalan, "yoqimsiz", "marhamatli").

- Emotsional(Emotive): Hayajon, xursandchilik, qayg'u kabi his-tuyg'ularni ifodalaydi.

- Uslubiy (Stylistic): So'zning rasmiy, norasmiy, she'riy, kulgili yoki haqoratomuz tusini bildiradi.

- Obrazli (Figurative): Metafora, kinoya, sarkazm kabi obrazli vositalar orqali hosil bo'ladigan ma'no.

Masalan, "oqsoqol"ning denotativ ma'nosi - kekxa, hurmatli erkak. Konnotativ ma'nosi - bu so'zda ijobiy baholovchi (tajribali, dono, hurmatli) va ijtimoiy mavqe semasi mavjud. "Oqsoqol" deganda ko'z o'ngimizda jamiyatda o'rni bor, maslahat beruvchi inson gavdalanadi.

Lekin "qari" yoki "qariya" so'ziga kelsak, bu ikkala so'zning ma'nosi - yoshiga to'lgan, kekxa yoki yoshi o'tgan deganidir. Konnotativ ma'nosi - bu so'zda ba'zan salbiy baholash (holsiz, ko'zi ojiz, ojiz) semasi mavjud bo'lishi mumkin. Differensial sema esa - bu bir turkumga kiruvchi, ma'no jihatdan yaqin bo'lgan so'zlarni yoki frazeologizmlarni bir-biridan ajratib turuvchi farqlovchi ma'no bo'lagidir.

Har qanday so'zlar guruhida (masalan, harakat fe'llari yoki qarindoshlik nomlari) ikkita asosiy sema qatlami bo'ladi: 1) Archisema (Gipersema) - guruhdagi barcha so'zlar uchun umumiy bo'lgan ma'no; 2) Differensial sema: Shu guruh ichidagi so'zlarni bir-biridan farqlaydigan xususiy ma'no. Masalan, "yurmoq", "yugurmoq", "sudralmoq" harakat fe'llari.

Bu fe'llarning archisemasi "harakatlanish"ni bildirsa, differensial semalari("yurmoq"da "oyoqda, o'rtacha tezlikda", "yugurmoq"da "oyoqda, tez" va "sudralmoq"da esa "butun tana bilan, sekin") ularni bir-biridan ajratib turadi.



Bunday ma'no farqlanishlari va sinonimik qatordagi birliklar o'rtasidagi nozik ma'no farqlari aynan semantik tahlil jarayonida aniqlanishi muhim va bu holat semantik tahlilning tilshunoslikdagi ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi.

Frazeologik birliklar ham, albatta, denotativ, konnotativ va differensial ma'nolarga egadir. Frazeologiyada denotativ ma'no - bu iboraning mantiqiy mazmuni bo'lsa, konnotativ ma'no - uning "ruhi", ya'ni emotsiyasi va obrazi hisoblanadi. Frazeologik birliklar (FB) shunday til birliklariki, ularda denotativ va konnotativ ma'nolar bir-biri bilan juda murakkab bog'langan bo'ladi. Frazeologik birliklarni o'rganishda va tarjima qilishda denotativ va konnotativ semalarni aniqlash juda muhimdir. Chunki frazeologizmlar ko'pincha denotativ ma'nosidan ko'ra kuchliroq konnotativ (obrazli, baholovchi, emotsional) ma'noga ega bo'ladi. Tarjimon inglizcha iboraning ham denotativ, ham konnotativ ma'nolarini tushunib, o'zbek tilidagi muqobilda bu semalarni to'g'ri aks ettira olishi kerak. Agar tarjimon konnotativ semani (obraz, emotsiya, uslub) hisobga olmasa, iboraning badiiy va ekspressiv qiymati yo'qoladi.

Komponent tahlil jarayonida aynan differensial semalar yordamida sinonimik qatordagi so'zlarning ma'no nozikliklari va uslubiy bo'yoqlari aniqlanadi. Frazeologik birliklarni qiyosiy o'rganishda differensial semalarni aniqlash - tarjima ekvivalentining adekvatligini baholashda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Misol tariqasida, "to have a heart of stone" (toshbag'ir bo'lmoq) degan ma'noni anglatadi. Bu iborani semantik komponentlarga ajratamiz: Denotativ ma'no (Asosiy ma'no) - rahmsiz bo'lish, hech qanday shafqat yoki his-tuyg'uni his qilmaslik; Konnotativ ma'no (Qo'shimcha ma'nolar): Obrazli sema - inson yuragi tirik to'qima emas, balki qattiq, sovuq va jonsiz "tosh"ga qiyoslanmoqda; Baholovchi sema - salbiy va jamiyat bunday sifatni qoralaydi; Emotsional sema - nafrat yoki afsuslanish hissini uyg'otadi; Intensivlik - oddiy "shafqatsiz" so'zidan ko'ra kuchliroq darajani bildiradi.

Frazeologik birliklardagi yuqoridagi ma'no farqlanishlari hamda denotativ, konnotativ va differensial semalarni aniqlash ham aynan semantik tahlil jarayonida amalga oshadi va bu jarayonning frazeologik birliklarda semalarni aniqlash va farqlashda o'rni beqiyosdir. Shuningdek, ma'nolarni aniqlash va farqlash orqali frazeologik birliklarni ma'no jihatlarini to'g'ri tushunish va talqin qilish frazeologik birliklarni tarjima qilish yoki muqobil variantlarini berish jarayonlarini osonlashtiradi.

Tilshunoslikda har qanday til birligining mazmuniy jihatini o'rganish semantik tahlil deb ataladi. Semantik tahlil - bu so'z yoki frazeologik birlik tarkibidagi ma'no qatlamlarini, ularning o'zaro munosabatini va nutqdagi voqelanishini ilmiy asosda ochib berish jarayonidir. Semantik tahlil yordamida so'z va iboralarining ichki ma'no tuzilishi, ularning paradigmatic va sintagmatic munosabatlari aniqlanadi. Ushbu metod leksikologiya, frazeologiya, semasiologiya va kognitiv lingvistika sohalarida keng qo'llaniladi. Frazeologik birliklarni o'rganishda semantik tahlil alohida ahamiyat kasb etadi.

Chunki frazeologizmlar tarkibidagi komponentlarning ma'nosi ko'pincha butun birlikning umumiy ma'nosiga to'liq mos kelmaydi. Bu holatda frazeologik birlikning semantik yaxlitligi alohida semalar tizimi orqali shakllanadi.



Masalan, ingliz tilidagi "let the cat out of the bag" frazeologizmining umumiy ma'nosi "biror sirni bexosdan yoki ochiqchasiga oshkor qilib qo'ymoq" bo'lib, uning tarkibiy qismlari bu ma'noni bevosita ifodalamaydi. Bunday birliklarni tahlil qilishda semantik tahlil frazeologik ma'noning qanday semalar asosida shakllanganini aniqlash imkonini beradi.

Semantik tahlilning muhim yo'nalishlaridan biri komponent tahlili (componential analysis) hisoblanadi. Ushbu metod ma'noni uning eng kichik bo'laklari - semalarga ajratish orqali amalga oshiriladi. Ma'lumki, har bir frazeologik birlik murakkab semantik strukturaga ega bo'lib, u denotativ, konnotativ va uslubiy komponentlardan tashkil topadi³⁴. Komponent tahlili yordamida biz ibora tarkibidagi aynan qaysi sema (masalan, obrazlilik yoki emotsionallik) yetakchi ekanligini aniqlashimiz mumkin.

Ingliz frazeologiyasining yirik namoyandasi A.V.Kunin semantik tahlilni frazeologik identifikatsiya metodi bilan bog'laydi. Uning fikricha, frazeologik birlikning semantik tahlili uning turg'unligi va yaxlit ma'nosini aniqlashdan boshlanishi kerak³⁵. Kunin frazeologizmlarni tahlil qilishda ularning semantik transformatsiyaga uchrash darajasini o'rganishni asosiy vazifa sifatida qo'yadi.

N.N.Amosova esa semantik tahlilni kontekstologik nazariya doirasida ko'rib chiqadi. Uning ta'kidlashicha, frazeologik birlikning ma'nosi faqatgina "doimiy kontekst" (constant context) ichida to'laqonli namoyon bo'ladi³⁶.

Ya'ni, semantik tahlil jarayonida ibora tarkibidagi "ko'rsatkich" (indicator) va "tayanch so'z" (determinant) o'rtasidagi semantik aloqani o'rganish lozim.

O'zbek tilshunosligida semantik tahlil masalalari Sh. Rahmatullayev asarlarida fundamental tarzda yoritilgan. Olim frazeologik birliklarning semantik tahlilini ularning variantdorligi va sinonimiyasi bilan bog'liq holda tadqiq etgan³⁷.

Shuningdek, Baqo Yo'ldoshev frazeologizmlarning semantik tahlilida uslubiy (stilistik) semalarni ajratib ko'rsatish muhimligini uqtiradi.

Uning fikricha, semantik tahlil faqat ma'noni emas, balki o'sha ma'no ortida turgan ijtimoiy-madaniy bahoni ham ochib berishi kerak³⁸.

Semantik tahlilning yana bir muhim jihati - bu differensial semalarni aniqlashdir. Bu jarayonda ma'no jihatdan yaqin bo'lgan ikki ibora (masalan, inglizcha "to kick the bucket" va "to pass away") qiyoslanadi.

Ikkalasida ham "o'lim" (archisema) mavjud bo'lsa-da, semantik tahlil ularning biri qo'pol (slang), ikkinchisi esa yumshoq (evfemizm) ekanligini ko'rsatadi³⁹.

Xulosa qilib aytganda, semantik tahlil frazeologik birliklarning ichki dunyosini o'rganish uchun kalit bo'lib xizmat qiladi. U orqali nafaqat iboraning lug'aviy ma'nosi, balki uning obrazlilik, emotsionalligi va madaniy kodi ham ochiladi.

Bu esa, o'z navbatida, dissertatsiya ishining amaliy qismida ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi semantik muvofiqlikni (ekvivalentlikni) aniqlashda asosiy poydevor bo'ladi.

³⁴ Cruse, D.A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – P. 87.

³⁵ Кунин, А.В. Курс английской фразеологии. – Москва: Высшая школа, 1984. – С. 178.

³⁶ Амосова, Н.Н. Основы английской фразеологии. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1963. – С. 158.

³⁷ Rahmatullayev, Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – B. 7.

³⁸ Yo'ldoshev, B. O'zbek frazeologiyasining rivojlanish muammolari. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 45.

³⁹ Lyons, J. Semantics, Vol. 1. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – P. 309.



1. Cruse, D.A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
2. Lyons, J. Semantics, Vol. 1. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977.
3. Rahmatullayev, Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent: O'zSSR "O'zbekiston" nashriyoti, 1978.
4. Yo'ldoshev, B. O'zbek frazeologiyasining rivojlanish muammolari. Toshkent: O'zODTU nashriyoti, 1998.
5. Амосова, Н.Н. Основы английской фразеологии. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1963.
6. Кунин А.В. Курс английской фразеологии. – Москва: Высшая школа, 1984.